

SPARTANCHA TARBIYA QANDAY TARBIYA?

Eramizdan avvalgi sakkizinchi asrda Yunoniston shaharlaridan biri — Spartada jangari doriylar qabilasi yashagan. Ularni, istiqomat joylari nomidan kelib chiqib, spartaliklar deb ham atashgan. Ular qo'shni hududlarga bosqinlar qilib, u yerlarda yashaydigan qabilalarni qul qilishardi. Ko'plab harbiy yurishlar doriylar — spartaliklardan katta kuch va chidamlilik talab qilardi. O'shanda Spartada bolalarni jismoniy tarbiyalashning alohida tizimi yuzaga keldi.

Spartalik barcha o'g'il va o'omir bolalar yoshiga ko'ra otryadlarga bo'lingan. Bu otryadlarda bolalar tarbiyasi juda qattiq bo'lgan. Bunda yagona maqsad — barcha spartalik bolalarni kuchli hamda jismoniy jihatdan chiniquqan qilib tarbiyalash maqsadi qo'yilgandi. Zotan, bu talab o'gil bolalarga ham, qiz bolalarga ham birdek qo'yilardi. Chunki kelajakda shu qizlar soglom ona bo'lmog'i lozim edi.

Qadimgi yunon tarixchisi Plutarx o'g'il bolalarni tarbiyalash tizimini quyidagicha tasvirlaydi: «Ularning savodi faqat zarur darajadagina chiqarilardi, qolgan ishlarda esa tarbiya so'zsiz bo'ysunish, har qanday muhtojlikka matonat bilan chidash hamda raqibdan ustun kelishga qaratilardi. Yoshi katta bo'lgan sayin talab keskinlashib borardi: o'g'il bolalarni sochi qisqa qilib olinardi, ular yalang oyoq yugurishardi, yalang'och o'ynashga o'rgatilardi. O'n ikki yoshdayoq ular xiton kiymay yurishar, bir yilda bir marta ustki ko'ylak olishardi. Hammom va badanga xushbo'y moddalar surtish ular uchun yot edi — spartalik bolalar bu ne'matdan bir yilda bor-yo'g'i bir necha kun bahramand bo'lishardi. Otryadlarda, birgalikda uxlashar, buning uchun Evrot sohilida qo'l bilan sindirilgan qamish poyasidan o'zlari to'shak tayyorlashardi».

Bolalar jismoniy tayyorgarlik saboqlarini nechog'li o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida, Spartada maxsus bayramlar uyushtirilardi. Bu bayramlarda ular o'zlari qo'lga kiritgan yutuqlarni namoyish etib, haqiqiy eronlik darajasiga yetishganini, katta yoshli jangchilar safiga kirishlari mumkinligini isbotlashlari darkor edi.

Bayramlar Orfiyadagi qadimiy unumdorlik ma'budasi Artemida ibodatxonasida o'tkazilardi. Ma'buda sharafiga uyushtirilgan bu bayramlarda yigitlarning bir guruhi boshqa guruh qo'riqlayotgan pishloqni olib qochishi lozim edi. Kim shu ishni bajarolsa, g'olib deb e'lon qilinardi.

Shundan keyingi davrlarda ma'buda Artemida sharafiga uyushtirilgan bayramlarda yigitlar ancha og'ir sinovlarga bardosh berib, iroda va matonatlarini namoyish etishga majbur bo'lganlar. Ularni qamchi bilan savalashardi. Savalash vaqtida biron marta ham ingramagan yigitlar sinovdan o'tgan hisoblanardi.

ALEKSANDR MAKEDONSKIY KIM BO'LGAN?

Filipp II Makedonskiy vafotidan keyin (eramizdan avvalgi 336-yil) uning 20 yoshli o'g'li Aleksandr taxt vorisi bo'lib qoldi. Sharq xalqlari orasida u Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur. Taxtga hech kim da'vo qilmayotganligiga ishonch hosil qilgach, eramizdan avvalgi 334-yilda u Kichik Osiyoga bostirib kiradi.

Aleksandr boshdanoq Fors imperiyasini zabt etishni niyat qilganmidi-yo'qmi, ma'lum bo'lmasada, keyinchalik bu ish uning maqsadiga aylangandi.

Uning armiyasining asosiy qismini 12 ming makedoniyalik va 12 ming yunonlar tashkil qilardi. Aleksandrga sadoqatli qo'shinlar yaxshi mashq qildirilgandi. Qo'rquv bilmas sarkarda bo'lgan Aleksandr qushinni jangga o'zi boshlab borardi. Ko'p bora unga o'lim xavf solgandi.

Fors shohi Daryovush III unga nisbatan tajribasiz lashkarboshi edi. Forslar harbiy yurishlarga katta karvonni va hatto shoh xonadonidagi ayollarni ham olib yurishardi. Daroparda (chodir), mol-mulk va boshqa zeb-ziynat buyumlari tez harakat qilishga xalal berardi.

Makedoniyaliklar armiysi esa, aksincha, a'lo darajada mashq ko'rgan va doim jangga hozir edi. Makedoniyaliklar qo'shinining dahshatli falangalari (saflari) dushman askarlari qatorini yorib o'tishga mo'ljallangandi. Dushman hujum qilgan holatlarda esa ular mudofaaga ham o'tishi mumkin edi. Falanganing old qatorlaridagi askarlar sarissalar olib yurishar, ularning ortidan kelayotganlarni esa otiladigan snaryadlarni qaytarish uchun qalqon ko'tarib yurishardi.

ALEKSANDR MAKEDONSKIY QAYSI DAVLATLARNI ZABT ETGAN?

Aleksandr Granika yonida zafar quchgach, Kichik Osiyoning g'arbiga qarab yurishni davom ettirdi hamda Milet singari shaharlar qarshiligini sindirib, ularni egallaydi. U Iss (Suriyaning shimolida) ustiga yurishdan ilgari Onado'lida qishlaydi. Shu yerda u forslarning katta armiyasini tor-mor keltiradi. Tir shahrini ko'p oy qamal qilgach, Aleksandr uni egallaydi hamda janubga, Misr tomon yurishni davom ettiradi.

Misrliklar avvalgi shafqatsiz fors hukmdorlaridan xalos bo'lishni orzu qilgan holda, Aleksandrning qadamini muborakbod etadilar. So'ng u Shimol va Sharqqa yurish qilib, Shimoliy Mesopotamiyada Gavgamela yonida o'zining eng yirik g'alabasini qo'lga kiritadi. Daryovush Baqtriyaga qochib boradi va u yerda mahalliy aslzodalar tomonidan o'ldiriladi.

Fors va Misr endi Aleksandr qo'l ostida edi. Shunday bo'lsada, unda jang qilish istagi kuchli edi. Biroq qo'shinlar Shimoliy Eronning eng olis viloyatlariga yetgach, haddan tashqari holdan toygandi. Oqibatda Shimoliy Hindistonda qo'shinlar olg'a yurishni davom ettirishdan bosh tortadi.

Fors imperiyasining hukmdori bo'lib qolgan Aleksandr endi yunonlar, forslar va makedoniyaliklarni birlashtirish harakatiga tushadi. U Baqtriya amaldorining qizi Roksana (Ravshanak) ka uylanadi, askarlarning ham fors ayollariga uylanishiga ko'ndirishga harakat qiladi. Vaqti kelib u forsiy libos kiyib, o'zini Sharq hukmdorlaridek tuta boshlaydi. Buni esa yunon va makedoniyalik jangchilar ma'qullashmaydi.

Aleksandr Arabistonga yurish boshlashni ko'ngliga tugib qo'yadi-yu, biroq eramizdan avvalgi 323-yilda Bobilda vafot etadi. Vafotidan so'ng tug'ilgan o'g'lini

esa shuhratparast sarkardalari nobud qilishadi. Uning sobiq lashkar-boshilari, oralaridan birontasiga haddan tashqari ko'p hokimiyat tegib qolishdan qo'rqib, Aleksandr imperiyasini o'zaro taqsimlab oladilar. Bu odamlarni diadoxalar (aynan — vorislar) deyishardi. Ular hokimiyat talashib, bir-biri bilan kurash olib borganliklari uchun Yunoniston va Yaqin Sharqda urush olovi uzoq yillar tinmadi.

PARFIYALIKLAR VA SOSONIYLAR KIMLAR?

Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng imperiyasi parchalanib ketgach, ko'plab xalqlar shu jumladan parfiyaliklar mustaqil yashay boshlaydilar (dastavval ular Kaspiy dengizining sharqiy sohilidan bo'lgan ko'chmanchilar edi). Ular asta-sekin ko'plab hududlarni bosib olib, o'zlarining yarimsharqiy, yarim-yunon imperiyasini vujudga keltirishadi. Parfiyaliklar otdan foydalanishni bilishlari bilan shuhrat qozongan bo'lib, ularda otliq qo'shini bor edi.

G'arbda Parfiya imperiyasi Rim imperiyasiga borib tutashar edi. Rimliklar parfiyaliklarni yenga olmaydilar, shu bois ular bilan muzokara olib borishga majbur bo'ladilar. Rim imperatori Trayan davrida, eramizdan avvalgi 114-yilda parfiyaliklar hududining bir qismini rimliklar bosib olishadi.

Eramizning III asrida Parfiya imperiyasini sosoniylar yengadi. Fors ko'rfazi sohilida joylashgan, ilgari Parfiya imperiyasiga kirgan Persida sosoniy shohlar yangi imperiya barpo etadilar. Birinchi sosoniy shoh Ardasher (Artakserks) parfiyaliklar hukmronligiga qarshi isyon ko'taradi va eramizning 224-yilida parfiyaliklarning so'nggi shohi Artabon V ni o'ldiradi. Shundan so'ng u qo'shni xalqlar, shu jumladan rimliklar va kushonlar ustiga muttasil xujum qilib turadi.

Uning o'gli Shopur I Kushon imperiyasi hududining katta qismini bosib olib, uch rim imperatorini tor-mor qilgan: Gordian III jangda o'ldiriladi, Filipp Shopur bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Imperator Valerian esa eramizning 260-yili asir olinib, qatl qilinadi. Shopur I rimlik asirlarni «Vex-Antioq Shopur» deb nomlagan yangi shaharga joylashishga majbur qilib, ularni xo'rlaydi. Chunki shahar nomi «Shopur shahri Antioxiyadan yaxshiroq» degan ma'noni bildiradi (Antioxiya rim viloyati bo'lgan Suriyaning poytaxti edi).

BUYUK IPAK YO'LI QANDAY YO'L?

Xaritada Uzoq Sharqni Yevropa bilan bog'lagan yo'l — Buyuk Ipak yo'li tasvirlangan. Bu juda ham aniq nom emas, chunki bu aslida bitta yo'l emas, balki shaharlar va vohalar o'rtasidagi bir qancha karvon yo'llari edi. Savdogarlar bu yo'llardan faqat ipak-shoyi emas, balki boshqa ko'plab qimmatbaho mollarni tashiganlar.

Xitoy shoyisi uni sotib olishga qurbi yetadiganlar orasida alohida e'tibor topgandi. Shoyi mato parchalari Afinadagi VI asrga oid qabrlardan, shuningdek, Germaniyadagi temir davriga oid go'rlardan ham topilgan. Rimliklar zeb-ziynat buyumlarini ko'p miqdorda sotib olishadi. I asrda rimliklar tarixchisi Katta Pliniy bunday deb yozgandi: «Hindiston, Xitoy va arab mamlakatlari har yili

imperiya bizdan katta miqdordagi pulni olib ketishardi — zeb-ziynatlarimiz va ayollarimiz bizga juda qimmatga tushardi».

Savdo yoʻlida harakat ikki tomonlama edi. Rimliklar keltirilgan barcha zeb-ziynat buyumlari oʻrniga Sharqqa oltin va kumush tangalar, sopol buyumlar, shisha idishlar, qimmatbaho toshlar yuborishardi.

ETRUSKLAR KIMLAR?

Rimliklarning ilk tarixini tushunib olish uchun dastlab etrusklar bilan tanishish zarur. Etrusklar — Rimdan shimolda, unumdor qir-adir yerlarda joylashgan Etruriya viloyatida yashagan xalq. Eramizdan avvalgi VII asrga kelib etrusklar 12 mustaqil davlat barpo etishgandi. Bu davlatlarning har birining oʻz poytaxti mavjud edi. Biroq, ularning aholisi oʻzini yagona etrusk xalqi deb hisoblardi. Ular hammasi bir boʻlib Etruriyadan tashqaridagi yerlarni bosib ola boshladilar. Eramizdan avvalgi VI asrga kelib janubda Salernodan shimolda Mantuigacha yangi etrusk shaharlari vujudga keldi.

Etrusklar qudratli xalq boʻlsa-da, Italiyaning bu qismida yolgʻiz ulargina istiqomat qilishmasdi. Ular samnitlar, umbrlar, sabinlar va aftidan, Alp togʻlari ortidan eramizdan avvalgi VII asrgacha bu hududga koʻchib kelgan koʻpdan-koʻp lotin qabilalari bilan yonma-yon yashaganlar. Ularning tili lotin tili boʻlganligi qabilaning nomidan ham koʻrinib turibdi.

RIMNING BIRINCHI HUKMDORI

KIM BOʻLGAN?

Lotinlar Rim shahrida va uning atrofida yashashgan. «Rim» soʻzi (lotincha «Roma») etrusklarga oid. Shaharning ilk tarixi oʻsha davr Italiyasining tarixi murakkab boʻlganidan guvohlik beradi. Rimda podshohlar — dastlab sabinlardan boʻlganlari, soʻng lotinlardan boʻlganlari, keyin yana sabinlardan boʻlganlari hukmronlik qilishgan. Soʻng, birin-ketin uch etrusk podshohlari hukmfirmo boʻlishgan. Rimliklarning oʻzlari shaharga eramizdan avvalgi 753- yil 21- aprelda asos slogan. Romulni birinchi hukmdori yoki podshohlari deb hisoblashadi. Sizlar egizak Romul va Rem haqida oʻqigan boʻlsalaringiz kerak. Rivoyatlarga koʻra, ularni savatga solib, Tibr daryosiga tashlaydilar. Ularning oʻlimi goʻyo muqarrar edi. Biroq daryo toʻlqini savatni qirgʻoqqa chiqarib tashlaydi. Ularni urgʻochi boʻri boqib, katta qiladi. Keyinchalik Romul, bahslashadi turib, ukasi Remni oʻldirib qoʻyadi.

Dastavval Rim shahri Tibr daryosi ustida yastanib yotgan yetti tepalik: Kvirinale, Viminale, Eskvinil, Selin, Aventin, Palatin va Kapitoliyda qurilgan alohida posyolkalardan iborat boʻlgan. Etrusklar bu posyolkalarni birinchi chinakam shahar qilib birlashtirgan. Tepaliklar oraligʻidagi vodiylarda uylar, doʻkonlar, ustaxonalar qurilgan. Tibr kengayib borayotgan shaharni dengiz bilan bogʻlaydi. Bu esa Italiyaning qolgan qismlari va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiqni osonlashtirgan. Keyinchalik Tibr mansabida Ostiya porti qurilgan.

QADIMGI RIMLIKLAR QANDAY XUDOLARI TOPINISHGAN?

Rimliklar, xudolarimiz inson qiyofasiga kiradi va ularning har birining o'z faoliyat sohasi bor, deb ishonishardi.

Venera go'zallik va muhabbat ma'budasi edi. Yuliy Sezar o'zini troyalik Anxiz va Veneraning o'g'li qahramon Eney avlodidan deb hisoblar, shu bois uning sharafiga Rimda ibodatxona qurdirgandi.

Unumdorlik, uzumchilik va vinochilik ma'budi Vakxni (yunoncha Dionisni) yunonlar ayniqsa e'zozlashardi.

Ov ma'budasi Dianani odatda qo'lida o'q-yoyi bilan tasvirlashardi. U yana nabotat ma'budasi va ayollar homiysi hisoblanardi.

Yupiterning xotini Yunona ayollarning bosh xudosi hisoblanardi. Ilk rim davrida unga faqat onalikning homiysi sifatida e'tiqod qilishgan edi. Keyinchalik u Rim davlatining asosiy ma'budalaridan biriga aylangan.

Merkuriy — hunar va savdo, foydali bitimlar, tadbirkor yo'ldoshlar ma'budi. Uning yunon qiyofadoshi xudolarga xabar beruvchi Germes edi.

Uni ham, Merkuriy singari, dubulg'asida qanotlar bilan hamda shippakda tasvirlashardi.

Yupiter (yunoncha Zevs) xudolar shohi va odamlar hukmdori, osmonlar, momaqaldiraq va yashin xudosi bo'lib, uni taxtda va o'z ramzi bo'lmish burgut ushlab o'tirgan holda tasvirlashgan.

Rimliklar o'z xudolari sharafiga ibodatxonalar qurishar, oliy kohin — pontifik esa marsiyalarni va qurbonlik qilishni amalga oshirardi. Marosim shahar bo'ylab yurishdan boshlanib, mo'ljallangan jonlik qurbon qilish bilan tugashi mumkin edi.

YULIY SEZAR NIMASI BILAN MASHHUR?

Eramizdan avvalgi 59- yilda Yuliy Sezar konsul qilib tayinlanadi. Rim respublikasidagi bu eng yuqori lavozimdan so'ng u Shimoliy Italiya va Galliya viloyatlariga noib etib yuboriladi. Kasbi-kori jangchi bo'lgan Sezar Galliya, Germaniya va Britaniyadagi kelt xalqlari yerlarini bosib olishni ko'ngliga tugib qo'yadi. Eramizdan avvalgi 54-yilga kelib u Britaniya dengizi (hozir — La-Mansh bo'g'ozi) sohili bo'ylab Rim dunyosi shimoliy chegarasini belgilaydi.

Sezar harbiy yurishlari davrida Britaniyaga ikki marta — eramizdan avvalgi 55- va 54- yillarda bostirib kirdi. U mahalliy qabilalar La-Mansh orqali Shimoliy Galliya xalqlariga boshpana berib, yordam ko'rsatayotganliklarini tushunardi. Ilk bor u 12-ming kishilik qo'shin bilan Kentdagi hozirgi Dil qishlog'iga yaqin joyga qo'r to'kadi, mahalliy qabilalar boshliqlarini Rim hukmdorligini tan olishga va bundan so'ng uning Galliyadagi dushmanlariga yordam ko'rsatmaslik to'g'risida va'da berishga majbur etadi.

Bir yil o'tgach, Sezar yana Britaniyaga bostirib kiradi. Endi uning qo'shinida 37-ming askar bor edi. Mamlakat ichkarisiga, hozirgi Xertfordshirgacha kirib borib, mahalliy qudratli qabila ustidan g'alaba qozonadi. U Britaniyada gornizonlarini qoldirmagan bo'lsa-da, Rimning Galliya shimolidagi Hududlarini xavfdan xoli qilgan.

Yuliy Sezar o'ldirilgach, uning asrandi o'g'li Oktavian o'z dushmanlari ustidan g'olib keladi va Rimda eng qudratli odam bo'lib qoladi hamda davlatni yolg'iz o'zi boshqaradi.

Eramizdan avvalgi 27- yilda Senat unga alohida Avgust nomini bergan va bu nom keyinchalik imperatorlar nomining bir qismi bo'lib qolgan.

GLADIATORLAR KIMLAR?

Qadimgi Rimda tomoshabinlar dilini xushnud etish uchun gladiatorlar jangi o'tkazilgan. Bu akrobatlar, dorbozlar chiqishlari yoki musiqiy va teatr tomoshalari singari odatiy hol bo'lgan. Farqi shuki, gladiatorlar janglari albatta qon to'kish bilan tugagan. Bir gladiator boshqasini o'ldirgan. Ommaga bunday tomosha yoqar va xalq unga guras-guras bo'lib kelardi. O'lim bilan tugaydigan bunday olishuvlardan faqat oddiy xalq huzur qilib qolmasdi. Tomoshabinlarning birinchi qatorida patritsiylar, rimlik aslzodalar vakillari o'tirishardi. Sahnada halokatli jang olib borayotgan odamlar esa gladiatorlar deb atalardi. Bu nom lotincha «Gladius» — qilich so'zidan kelib chiqqan. Boisi — gladiatorlar o'tkir charxlangan qilichlar bilan jang qilishardi.

Har bir jangda o'nlab, yuzlab odamlar halok bo'lar, ularning o'rnini boshqa gladiatorlar to'ldirishardi.

Gladiatorlarni qayerdan topishardi va ular nima sababli bunday dahshatli«ishga» rozi bo'lishardi?

Gladiatorlar, birinchi navbatda, o'z harbiy qudrati bilan shuhrat topgan Rimda doimo ko'p bo'ladigan harbiy asirlar orasidan tanlab olinardi.

Jinoyatchilarni, ya'ni qaroqchilik, isyon, qotillik va boshqalar uchun jazo tayinlangan fuqarolarni ham gladiator bo'lishga majbur etishardi: ularni qamoqqa jo'natmay, «qilich»ga — «ad gladium»ga hukm qilishardi. Bir kun Yahudo podshosi Agrippa (o'sha paytda Yahudo ham Rim imperiyasi tarkibiga kirardi) Bayrutdagi amfiteatrda har tomondan 700 kishidan iborat bo'lgan jinoyatchilar guruhini jangga tushirishni amr qiladi. Shu tariqa barcha jinoyatchilar qilichbozlik qilib, bir-birini o'ldirib yuboradi.

Gladiatorlar orasida qullar ham ko'p bo'lgan. Biroq ba'zan ozod fuqarolar ham o'z xohishi bilan gladiatorlikni tanlashardi. Ba'zi hollarda esa hatto ayollar ham gladiatorlar guruhiga kelishardi. Fasos orolilik Gekateyaning nomi ma'lum: bu ayol ko'ngilli ravishda gladiatorlikni tanlagan. Ayrim ozod fuqarolar muhtojlik yoki hayotdan hafsalasi pir bo'lganligi bois gladiatorlikni tanlashga majbur bo'lishardi. Lekin ba'zan hayotdan zerikkanlar ham bo'lardi-ki, ular gladiatorlar jangidagi dahshatdan lazzat olishardi.